



Shahnoza MAHMUDOVA,
Navoiy davlat universiteti magistranti
E-mail: Samonurmahmudova@gmail.com

Navoiy davlat universiteti f.f.f.d., PhD, N.Rahmonov taqrizi asosida

INTERPRETATION OF CULTURAL CONNOTATIONS AND LINGUOPOETICS OF DIALECTISMS IN THE NOVEL “O‘TKAN KUNLAR”

Annotation

The linguopoetic analysis of dialectisms in the study of cultural connotations in the novel serves to reveal the artistic value of the work, its folk tone, the national-cultural expressiveness of language features, the significance of living folk speech, and the unique aspects of the writer’s mastery.

Keywords: cultural connotation, linguopoetics of dialectisms, national coloring, phonetic and lexical dialectisms, ethnographic dialectisms, pragmatic features of dialectisms.

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ КУЛЬТУРНЫХ КОННОТАЦИЙ И ЛИНГВОПОЭТИКА ДИАЛЕКТИЗМОВ В РОМАНЕ «ОТКАН КУНЛАР»

Аннотация

Лингвопоэтический анализ диалектизмов в изучении культурных коннотаций романа способствует раскрытию художественной ценности произведения, его народного звучания, национально-культурной выразительности языковых особенностей, значимости живой народной речи, а также уникальных аспектов писательского мастерства.

Ключевые слова: культурная коннотация, лингвопоэтика диалектизмов, национальный колорит, фонетические и лексические диалектизмы, этнографические диалектизмы, прагматические особенности диалектизмов.

“O‘TKAN KUNLAR” ROMANIDA MADANIY KONNOTATSIYALAR TALQINI VA DIALEKTIZMLAR LINGVOPOETIKASI

Annotatsiya

Romanda madaniy konnotatsiyalarni o‘rganishda dialektizmlarning lingvopoetik jihatidan tahlil etish asarning badiiy qimmatini va xalqona ohangi, til xususiyatidagi milliy-madaniy jozibadorlik, jonli xalq tilining ahamiyati, yozuvchi mahoratining betakror qirralarini ochib berishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: madaniy konnotatsiya, dialektizmlar lingvopoetikasi, milliy kolorit, fonetik va leksik dialektizmlar, etnografik dialektizmlar, dialektizmlarning pragmatik xususiyatlari.

Kirish. O‘zbek romanchiligining to‘ng‘ich asari “O‘tkan kunlar” nafaqat o‘zbek adabiyotini, balki Abdulla Qodiriy yashagan davr tilini o‘rganish uchun ham muhim manba sanaladi. Adibning “O‘tkan kunlar” romanidagi madaniy konnotatsiyalar va dialektizmlarni lingvopoetik nuqtayi nazardan tahlil qilish orqali xalq tilining milliy qadriyatlar, etnik tamoyil hamda qarashlarni ifodalashdagi lisoniy ahamiyatini chuqurroq anglashga erishiladi. “Til – yozuvchi uslubining qalbi”. Bu qalbning qanchalar go‘zal va betakror ekanligi xalq tili imkoniyatlaridan ustalik bilan foydalanib, obrazli badiiy tasvir yarata olishda namoyon bo‘ladi. Tilimiz uslubiy bo‘yoqdor so‘zlar, iboralar, purma‘no maqollar va hikmatli so‘zlarga benihoya boy”[1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Abdulla Qodiriy ana shu boylik vositalaridan madaniy-milliy xarakterlarni ochib berishda keng foydalangan. Bunda nasriy nutqning tabiiy va ta’sirchanligini oshirishda dialektizmlarni yozuvchi keng qo‘llaydi. Asarda muallif nutqida ham, qahramon nutqini individuallashtirishda ham leksik, fonetik, morfologik va frazeologik birliklardan mahorat bilan foydalangan. Masalan, sovtmachoq dasturxon leksik birligi kattaroq marosim, mehmondorchilikda uy egalari, mezbonlar, qo‘ni-qo‘shni uchun birrovga yozib qo‘yiladigan dasturxon ma’nosini bildiradi. Sovutmachoq so‘zi qizimoq so‘ziga zid tarzda ijobiy ma’no otkenkasiga ega. Ya’ni yordamga kelganlar yoki uzoqdan kelayotgan mehmonlarni kutish uchun oldinroq kelgan

qarindoshlar, qo‘ni-qo‘shnilar bir zum o‘tirib, nafas rostlab olishlari ma’nosini Qodiriy mazkur shevaga xos so‘z orqali ifodalaydi. Ushbu leksik dialektik birlikning pragmatik ma’nosida esa etnik xususiyatni ifodalagan madaniy mohiyat bor. Ya’ni uyda mehmon uchun, qudalar uchun yoziladigan dasturxon mehmondorchilikni ifodalasa, sovtmachoq dasturxon ahillik, qarindoshchilik va qo‘shnichilik munosabatlaridagi yaqinlik, uy egalarning ularga nisbatan hurmati anglashilgan. Yozuvchi sovtmachoq dasturxon atamasini aynan Toshkentda Yusufbek Hojining uyida qudalarni kutib olish marosimida qo‘llashi bu so‘zning hududiy xosligini bildirgan. Asarda surma puli degan miqdorni bildiruvchi so‘z qo‘llanilgan. Ya’ni Otabek va Ali Mingo‘rikka qozoqlar o‘toviga dam olishga borganda o‘tov boshining kelini ularga sho‘rva tayyorlab, dasturxonga qaragani uchun, dasturxonni yig‘ish chog‘ida kelinga o‘g‘il farzand tilab duo qilib, ... qo‘lig‘a o‘ttiz chaqa surma puli beriladi. Bu o‘rinda surma puli so‘zining semantik ma’nosiga ko‘ra surma o‘sha davrda yangi kelinchakning ko‘zga surtiladigan eng yaxshi pardozi vositasi bo‘lib, yozuvchi duoda kelinchakka o‘g‘il tilanganligi orqali uning yoshiga ham nisbat bergan. O‘sha davrda oshxonada xizmat qilgan erkak kishiga nisbatan choychaqa so‘zi ishlatilsa, ayollarga nisbatan bu so‘zning sinonimini surma puli so‘zini qo‘llaydi va so‘zda hurmat semasi alohida mohiyatga ega. “Olamni idrok qilgan inson So‘zni idrok qiladi. ... Ona tili umummillat tilidir. Demak, til

oldidagi mas'uliyat ham umummilliydir", - deb yozadi Erkin Vohidov o'zining "So'z latofati"[2] kitobida.

Tadqiqot metodologiyasi. Qodiriy qo'llagan dialektal so'zlar o'z zimmasiga nafaqat asar badiiyatiga xos uslubiy bo'yoqdorlikni ta'minlash vazifasini, balki yozuvchining idrokida ustunlik qilgan o'z tiliga nisbatan ma'naviy hurmat munosabatini ham bildirgan. Har bir hudud insonlariga xos madaniyatning belgilari, avvalo, tildagi imkoniyatlar, lingvistik xususiyatlar, dialektal birliklar orqali yanada jonli va haqqoniy ifodalanadi. Kognitiv tilshunoslik til va tafakkur bog'liqligi asosida tilning faqat ijtimoiy hodisa sifatidagi xususiyatidan tashqari uning ong va tafakkur mahsuli ekanligini ilmiy asosda o'rganishda yangicha yoki eskicha qarashlar emas, asl mohiyatni idrok etishni taqozo etsa, madaniy konnotatsiya kognitiv metaforalarning ma'lum bir millat madaniyatiga bog'liq xususiyatlarni o'rganishga zarurat nimada ekanligini ko'rsatib turadi. Bu esa badiiy asarlarning mohiyatini yanada aniqroq ochib berish va chuqurroq tahlil qilish, badiiy vositalarning o'ziga xos jihatlarni ko'rsatishga xizmat qiladi. Jumladan, Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asaridagi madaniy konnotatsiyalar, ya'ni madaniy belgilar asarning jonli tili, uning jozibasi, tarixiy davr kishilarining xalqona muloqot vositasi orqali moziyning nafasini, o'tmishdagi ijtimoiy-madaniy hayotni real aks ettirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kognitiv metaforalar kundalik hayotdagi voqealar orqali mavhum tushunchalar mohiyatini til va tafakkur bog'liqligi asosida anglash, konnotatsiyalar esa ana shu qarashlardagi madaniy, milliy, hissiy xususiylikni alohida ko'rsatish uchun lingvistik tamoyillarni talab etadi. "O'tkan kunlar" asarida to'y, ulfatlar, do'stlar, choyxona, qovoqxona, oiladagi o'zaro suhbatlarda etnografik elementlarni ifodalashda yozuvchi dialektizmlarga alohida murojaat qilganligini yuqoridagi misollarda ham ko'rish mumkin. Muallif aynan dialoglarda dialektizmlar - so'z, ibora va grammatik shakllardan maqsadli foydalanish orqali asar tilini boyitadi, sayqallaydi, asar voqealaridagi madaniy, milliy o'ziga xoslikni sodda, xalqchil tarzda kitobxonga yetkazadi. Romandagi dialoglar so'zlashuv uslubidan ko'ra ko'proq dialektal uslubga yaqin, chunki so'zlashuv uslubidagi so'zlarning auditoriyasi nisbatan keng, dialektal uslubdagi so'zlashuv esa faqat hudud kishilarigagina ayon. Masalan, - O'zingni teja, qizim, o'ringni qalin qilib burkanib yot... - To'ybeka, Kumushning choyini oqlab ber-chi.

Oftob oyim erining so'zini kuchlab tushdi:

-Issig'i bor, yuzi ham qizarib bo'rtib turibdir. Qutidor tilidan aytilgan choyini oqlab bermoq so'zi Marg'ilon shevasiga xos bo'lib, bu o'rinda choyga sut qo'shib berish nazarda tutilgan. Muallif buni choyiga sut qo'shib ber tarzida ishlatishi ham mumkin edi, ammo choyini oqlab bermoq shevaga xos so'z orqali personaj nutqidagi individuallikni ko'rsatish, unga tabiiy jilo berish va asarning til xususiyatini boyitish maqsadida yozuvchi ushbu birlikdan foydalangan. Dialektal birikma tarkibida -chi yuklamasining kelishi (choyini oqlab ber-chi) esa Qutidor nutqining buyruq ohangidan xoli tarzda, unda ta'kid ma'nosi borligini ko'rsatadi va bu xizmatkorga nisbatan iliq munosabat ma'no ottenkasini bergan. "O'zingni teja, qizim" murojaat birligida esa otaning qiziga nisbatan o'ziga xos mehribonligi aks etgan. Bu o'rinda qo'llangan teja so'zi semantik jihatdan o'zingni urintirma, asra ma'nosida bo'lib, yozuvchining so'z qo'llashdagi yuksak badiiy mahoratidan dalolat beradi. Asarda yozuvchi dialektal xususiyatga ega so'zlarni parsellyatli tuzilma shaklida qo'llagan o'rinarlar ham uchraydi. Masalan: -Qix... sizga bersam ham bo'lar ekan, - dedi xotin va yonchig'idan bir xat chiqardi. - O'g'lim, Toshkand bilan Marg'ilon orasida qatnab oliq-sotiq qiladilar. Bu gal Toshkandan qaytishida birav unga shu xatni berib, Mirzakarimboyning havlilariga tez yetkuzib berarsiz, deb iltimos qilidilar. Qix, xi-xi, aylanay, sizdan poshsha qiz, qix...

Ushbu parchada birinchi va so'nggi gap parsellyatlikka xos. Obrazga xos salbiy xarakterni bo'rttirib ko'rsatishga qaratilgan sovuq va yoqimsiz kulgini ifodalagan birlik qix tovushga taqlid so'zi orqali aynan dialektal xususiyat shakllangan. Birgina shu taqlid so'z yovuz niyatli ayolning qilayotgan ishi shu qadar tuban bo'lishiga qaramay, bundan zarracha uyalmasligini, yovuz niyatiga ishonchini ta'kidlab ko'rsatish uchun ayolning ana shu sovuq kulgisini dialogda jonli ifodalashga harakat qiladi. Bu esa, albatta, o'quvchiga hissiy ta'sir etib salbiy obrazga xos fe'l-atvor haqida kuchli tasavvur uyg'otadi. Bu o'rinda qix taqlid so'zi parsellyatli tuzilma hosil qilishda bir vosita bo'lib, yozuvchining o'ziga xos topilmasi sifatida asarda salbiy obrazning ichki qiyofasi, xarakteriga mos tasvir bo'lganligini ko'rish mumkin. Masalan, asarda Marg'ilondagi qovoqxona tasviri va devonaning ishtirokida ham yozuvchining aniq maqsadi bo'lgan. Garchi kitobxonga bu bob ikkinchi darajali detal kabi ko'rinsa-da, yozuvchi ijtimoiy madaniy muhitga xos umumiy ahvolning bir qirrasini aynan mana shu qovoqxonadagi manzara, bu yerdagi obrazlar, ularning so'zlarida yashiringan salbiy ma'no bo'yoqlari va ramziy detallar orqali ifodalaydi. Masalan: Och qoring'a salimsoq yeb, ko'k choy ichishdan zerikkan kishilar choyxonaga Qovoq devonaning kirishi bilan unga so'z qota qoldilar: -Keling -keling, devona! -Bir kosa choylaring bormi, xo'vari? -Bor-bor, avliya, bitta bachcha bo'lsangiz, idishi bilan sizniki. Bu dialogda salimsoq, qota qolmoq, xo'vari, avliya, bachcha kabi fonetik va leksik xususiyatga ega dialektizmlar qovoqxonadagilarning so'zlashuvdagi obrazlilikdagi reallikni ko'rsatish bilan birga ularning nutqi orqali xarakteridagi salbiy sifatlarga stilistik chizgi bergan. Shu bilan birga, yaxlit ibora sifatida matnda ichki ma'noni yashirgan. Bu o'rinda och qorinda salimsoq yemoq va ustidan ko'k choy ichmoq birliklari kognitiv metaforik xususiyatga ega bo'lib, undan ikki xil ma'no anglashiladi. Yozuvchi salimsoq (sarimsoq) so'zida sarxush qiluvchi ichimlikni qoliplab ko'rsatish bilan birga qovoqxonadagi yegulikning haminqadarligiga ham ishora qiladi. Bu ayniqsa qovoqxonada yig'ilgan Homid kabi axloqiy sifati buzuq, yolg'onchi kimsalarning tasvir haqqoniyligini ochib berishda qo'l kelgan. Asardagi dialoglarda ishlatilgan dialektizmlar (salimsoq, avliya, bachcha, qota qolmoq) shaklda qahramon nutqining tabiiyligi, jozibadorligi, shuningdek, qovoqxonadagi muhitni ko'rsatib o'tish orqali Homidning shaxsiga xos salbiy sifatga ham urg'u beriladi. Har qanday badiiy matnda badiiylik muammosining yechimi lingvistik imkoniyatlar bilan to'la qamrab olinadi.

Tahlil va natijalar. "O'tkan kunlar" asarida aynan fe'llarning dialektal xususiyatlari yozuvchining badiiy mahoratini ochib berishda alohida ahamiyatga ega. Masalan, Uyda Oftob oyim bilan To'ybeka qiy-chuv qo'pordilar. ...Kumushni o'ziga keltirish chorasini bilmay, to'g'risi nima chora ko'rishni eslari topmas edi. Bu gapda qilmoq so'zi o'rniga unga sinonim tarzda qo'pormoq fe'li obrazlardagi holatni kuchaytirish maqsadida qo'llanilgan. Shuningdek, ...chorasini bilmay, nima chora ko'rishni eslari topmas edi, deya yozuvchi so'zni takrorlash orqali qahramonning ruhiy holatini bo'rttirib, sinonimlar imkoniyatidan unumli foydalangan. Shuningdek, jerkimoq fe'lidagi tovush almashinuvi asosida jekirmoq tarzida ishlatilishi ham aynan shevaga xoslikni va badiiy bo'yoqdorlikni oshirishga xizmat qilgan. Yana bir misol: ...sirni ochish o'nqovida kelgandek edi... O'ngidan kelmoq tarzida ham ishlatish mumkin bo'lgan joyda Qodiriy aynan bu so'zning shevadagi shakliga murojaat qiladi. Hasanalining shubhasi bo'shga chiqdi. Ya'ni bu o'rinda Hasanalini shubhasi yo'qolmadi, aksincha noo'rin ekanligi ayon bo'ldi. Shu bois ushbu gapda yo'q so'zi o'rnida bo'sh so'zini qo'llaydi. Bo'sh so'zi ko'chma ma'noda, undagi

-ka qo'shimchasi esa shevaga xoslikni yuzaga keltirgan va bunda asarda dialektizmlar muallif nutqiga xos uslubiy ravonlikni, tabiiylikni oshirgan. Yana bir misol: ... maktubni ochib och ko'zini ishka qo'ydi... Ushbu gapda Otabekning intizorlik bilan maktubni shoshilib o'qishga kirishganligini Qodiriy o'ziga xos tarzda och ko'zini ishga solmoq tarzida ifodalagan. Odatda, ko'zi och iborasi salbiy ma'no bo'yog'iga ega, bu o'rinda esa Otabekdagi ichki hissiyotlar, sog'inchning darajasini ifodalab, ijobiy ma'noni konnotativ tarzda ifodalagan.

Iboralar va maqollarni tarbiyaviy, axloqiy, madaniy va ijtimoiy xususiyatlar yashiringan konnotatsiyalar deyish mumkin. Asardagi shunday maqollardan biriga misol: Kampirning dardi g'ozada, sichqonning dardi donlik ko'zada. Bu maqol orqali yozuvchi O'zbek oyim tabiatiga xos xudbinlikni fosh etgan. G'ozada ayollarning o'sha davrdagi yuziga suradigan qizil rangli pardoz buyumi bo'lib, undan anglashiladigan pragmatik ma'no soxtalik, o'zini niqoblash belgisi sifatida kelgan. Aynan ushbu maqol orqali O'zbek oyimning atrofda tilardan ko'ra o'zining g'ururini ustun qo'yishi qoralanadi. Maqolning semantik mohiyatida yozuvchining kinoyasi yashiringan. Unda ishlatilgan g'ozada so'zini maqolda boshqa so'z bilan almashtirib bo'lmaydi. Bunday misollar romanda ko'plab uchraydi. "O'tkan kunlar" romanida qo'shma fellar va iboralar tarkibidagi fe'l so'z turkumiga oid so'zlarning qo'llanilishi ham morfologik tuzilishi jihatidan tarixiylikdan ko'ra shevaga xoslikni ifodalaydi. Masalan, hozirgi o'zbek adabiy tilida ko'zi ola-kula bo'ldi tarzida ishlatiladigan ibora asarda ola-kula keldi, tersaymoq, yurina boshladi (sekin yurdi ma'nosida); elamadi payqamadi ma'nosida ishlatilgan. Bu so'zlar shevaga xos bo'lib, masalan, tersaymoq so'zi hozir ham Qashqadaryo, Surxandaryo shevalarida ko'proq uchraydi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da bu so'zga qovoq uymoq, xo'mraymoq tarzida izoh berilgan[2]. Ergash Qilichev o'zining "So'z sehri" kitobida "Mehrobdan chayon" romanida dialektizmlar deb nomlangan maqolasini kiritgan. Ushbu maqolada tilshunos olim asar tilidagi dialektizmlarni shartli ravishda 3 turga ajratadi. Bular:

1. Fonetik-orfoepik dialektizmlar. Tillo-tilla, qorun-qorin...

2. Leksik semantik dialektizmlar.

3. Morfologik dialektizmlar. To'xtabdi – to'xtabtu...[3]

"O'tkan kunlar" asarida ham har uchchala guruhga kiradigan ko'plab leksik-birliklar bor. Asardagi har bir xarakterni ochib berishda uning nutqida qo'llanilgan so'zlardagi uslubiy bo'yoqdorlikning lingvistik vositalarga tanilganligini ko'rish mumkin va bunda dialektizmlar zimmasiga ham alohida vazifa yuklatilgan. Masalan, Marg'ilon degan yurtdan ototlab, tuya qo'mlab kel emish-da, bir oyg'ina turmay ket emish! O'zbek oyim nutqida keltirilgan ushbu parchadagi ibora orqali kitobxon ko'z oldida bugunimizdan tubdan farq qiladigan ijtimoiy muhit va tarixiy manzara g'aldalanadi.

Filologiya fanlari doktori, professori Uzoq Jo'raqulov o'zining ilmiy maqolasida shunday yozadi: "Abdulla Qodiriy asarlarida biror so'z shunchaki yo noo'rin ishlatilmaydi. Uning asarlarida an'analar yangilanadi, shu asar o'zaniga solinadi va shu asar uchun xizmat qiladi"[4]. Ushbu fikrga izoh sifatida bir misolni keltirsak: Asarda Kumushning farzandini dunyoga keltirishi bilan bog'liq voqea tasvirida davr ruhi, manzarasini ochib berishda unda ishlatilgan so'zlarning dealektal xususiyatlari ham ahamiyatga ega. ...O'zbek oyim darrav (bu so'z aynan shu shaklda bugun aksariyat shevalarda ishlatiladi) Hasanalini mundan (bundan-fonetik o'zgarish) olti oy ilgari belgulanib qo'yilgan doya xoting'a yugurtirdi. Bu o'rinda so'zning sintaktik xususiyati dealektal uslubga xos soddalikka

xizmat qilgan. Ya'ni doya xotinning uyiga degan tushuncha xotin so'zidagi jo'nalish kelishigi qo'shimchasi orqali tejamlilikda berilgan. Bu tejamlilik esa muallif nutqidagi xalchillik, emotsionallikni oshirishga xizmat qilgan. Doya kengandan so'ng ichkari havli (hovli) erkak zotidan tozalandi. Hozirgi o'zbek adabiy tilidagi hovli so'zi asarda havli tarzida berilgan bo'lib, bu fonetik dialektizm ham ko'pgina o'zbek shevalarida uchraydi. Ta'kidlash joizki, bunday birliklar asarning ekspressivligini oshirishga xizmat qilgan. V.I.Shaxovskiy, ekspressivlik – bu so'zning bir-biriga ta'sir ko'rsatuvchi hamda umumiylikka birlashuvchi emotivlik, intensivlik, obrazlilik kabi konnotativ komponentlari orqali hosil bo'luvchi xususiyatidir, deya ta'kidlaydi. "O'tkan kunlar" asarida O'zbek oyim tilidan aytilgan ko'plab ibora va dialoqlarda ana shu emotivlik, intensivlik orqali milliy madaniyatga xos konnotativlik va personaj nutqidagi o'ziga xos individuallikni ham ta'minlashda uslubiy bo'yoqdorlik hosil qilingan. Masalan "Oq sutimni oqqa, ko'k sutimni ko'kka sog'dim... Endi Toshkandan kelmasun ul o'z boshimcha betiyuq! – deb baqirib-chaqirib, yig'lab-sixtab, dardu-hasratni boshiga kiyib oldi" Bu gapda yozuvchi va personaj nutqidagi emotsionallikni tarkib topishida iboralarning stilistik ma'no bo'yoqdorligi bilan birga "betiyuq" so'zidagi fonetik dialektallikning ham ishtiroki bor. Bergan sutimga rozi emasman mazmunidagi norozilik akti ibora yordamida hissiy bo'yoqdorlikni oshirishga xizmat qilgan bo'lsa, muallif nasriy nutqidagi dardu-hasratini boshiga kiyimoq – qattiq ranjimoq mazmunining gradatsiyasini shakllantirgan va bu badiiylikka xos xalqona ohang milliy xarakterdagi madaniy hissiy munosabatni ham bildirib turadi. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asarini ingliz tiliga tarjima qilish uchun 15 yil davomida izlangan amerikalik madaniyatshunos Mark Eduard Riz tarjima uchun asarning 1926-yilda bosilgan birinchi nashrini tanlaydi va asarda tarjimon 400 dan ortiq izohlarni keltirib o'tgan. Ular orasida aksariyat izohlar dialektizmlarga xos. Mark Rizning o'zi tarjima haqida shunday deydi: — Eng qiyin qismlar — Qodiriy "ko'cha tili"ni ifodalagan joylar bo'ldi. Roman ustida ishlay turib, Qodiriy romanga asl tilni singdirish uchun qishloqqa-qishloq kezgan. Men Toshkentda yashaganimda, bu so'zlar va iboralarni tushunishim osonroq bo'lgan, ammo vaqt o'tishi bilan ular unutilib ketadi.[5]

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, "O'tkan kunlar" romanida Abdulla Qodiriy madaniy konnotatsiyalardan unumli foydalangan. Yozuvchi dialektizmlarni, tilning tasviriy-ta'siriy vositalarini jonli xalq tilidan foydalangan holda qo'llagan, har bir ichki ma'noni yuklashda leksik semantik, sintaktik, morfologik, stilistik frazeologik imkoniyatlarga tayangan. U milliy tilimizga xos xususiyatlarni va obrazlarning xarakterini shu birliklar orqali ko'rsatadi va bu jonli muloqotni, xalq tilining mohiyatini asarda ta'minlab beradi. Romandagi har bir voqelik, g'oyaviy qarashlardan tortib kichik detallar, hatto birrovga tasvirlab o'tilgan obrazlarning o'z vazifasi va tasvir mukammalligida qator milliy-madaniy xususiyatlar mujassam. Shu bois Abdulla Qodiriyning so'z qo'llashdagi badiiy mahoratini romanda aynan dialektizmlarning lingvopoetik jihatdan o'rganishda uning kognitiv nuqtayi nazardan ongdagi manzarasi va madaniy konnotativ xususiyati yanada aniqroq oydinlashadi. Bu romanning til xususiyatini yanada keng aspektda o'rganish, dialektizmlarda yashirin xalqchilik, qadriyat va odatlar, milliy xarakterlarga xos sifatlarni yozuvchi istaganidek tasavvur etish, tushunishga yordam beradi. Chunki xalq madaniyati va e'tiqodi, o'zbekona axloqiy mezonlar, hamda milliy koloritning aynan asl holda o'tgan zamondan bugunga o'tib yashashini ta'minlagan muhim vositalar sirasida dialektizmlarning ahamiyati asarda nihoyatda salmoqlikdir.

ADABIYOTLAR

1. Abdulla Qodiriy. O'tkan kunlar/ roman / Adabiy barhayot asarlar. Nashrga tayyorlovchi: Xondamir Qodiriy. –Toshkent.: Oltin qalam, 2024. 29-bet.
2. Yo'ldoshev M., Isaqov Z., Haydarov Sh. Badiiy matnning lisoniy tahlili. –T.: Alisher Navoiy nomidagi “O'zbekiston Milliy kutubxonasi” nashriyoti, 2010.
3. Muhammadjonova G. Diss: 80-yillar oxiri, 90-yillar boshlari o'zbek she'riyatining lingvopoetik tadqiqi. –Andijon Davlat Universiteti.: 2003.
4. Erkin Vohidov. So'z latofati. –Toshkent.: “O'zbekiston” nashriyoti, 2014.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. –Toshkent.: 2023.
6. Ergash Qilichev. So'z sehri. –Toshkent.: “Muharrir”, 2022.
7. Jo'raqulov U. Toshkand ustida qonliq bulutlar / “O'tkan kunlar”ni ochuvchi va xulosalovchi maktublar xususida. <https://oyina.uz/uz/article/1529>
8. Azimov J. Bu o'tmish haqidagi roman Qodiriyning bugunini kelajakka ogohlantirish sifatida tasvirlaydi. <https://www.gazeta.uz/oz/2021/06/19/mark-reese/>